PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

TOG‘AY MURODNING SAJ’ SAN’ATIDAN FOYDALANISH MAHORATI (TOG'AY MURODNING BU DUNYODA O’LIB BO’LMAYDI ROMANI MISOLIDA)

Boqiyeva Gulsora

Qoraqalpoq davlat universiteti o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi magistratura 2- bosqichi talabasi.

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20337778

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanqli o‘zbek adibi Tog‘ay Murodning Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi romani misolida o‘zbek badiiy nasrida saj’ san’atining qo‘llanishi, uning turlari va uslubiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Muallif asaridan olingan aniq parchalar asosida adibning nasriy qofiya yaratish mahoratini ilmiynazariy jihatdan tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Saj’ san’ati, nasri musajja, sintaktik parallelizm, badiiy ritm, uslub, badiiy fonetika.

Kirish. O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos ovozi, betakror uslubi va xalqona tili bilan ajralib turuvchi adib Tog‘ay Murod ijodi milliy romanchilik rivojida yangi bir sahifani ochdi. Adib asarlarining jozibasi nafaqat ularda ko‘tarilgan ijtimoiysiyosiy muammolarda, balki tilining musiyqiyligi va ohangdorligidadir. Klassik adabiyotimiz va xalq og‘zakin ijodi an’analarini chuqur o‘zlashtirgan yozuvchi zamonaviy o‘zbek nasriga dostonovorlik, ritm va nasriy qofiya – saj’ san’atini olib kirdi. Adibning so‘nggi yirik asari bo‘lmish ”Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi romani nafaqat g‘oyaviy ko‘lami, balki nasri musajja’(qofiyali nasr)ning yuksak namunalari bilan yo‘g‘rilganligi sababli adabiyotshunoslikda alohida tadqiqot obyekti bo‘lishga loyiqdir.

Asosiy qism.

Saj’ – nasriy kalomda jumlalar oxirida keladigan so‘zlarning o‘zaro qofiyadosh va ohangdosh bo‘lib kelishi san’atidir. Mumtoz adabiyotshunoslikda saj’ning uchta asosiy turi(mutavozii, mutarraf, muvozan) farqlanadi. Tog‘ay Murod o‘z romanlarida ushbu qoliplardan shunchaki bezak emas, balki asar g‘oyasini, personajlar ruhiyatini va davr fojeasini emotsional bo‘rttirib ko‘rsatish uchun unumli foidalangan. Saj san’ati matda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Ritmik uyg‘unlik yaratadi;

Matnni yodda qoladigan qiladi;

Hisssiy ta’sirni kuchaytiradi;

Badiiy obrazlarni kuchaytiradi.

Tog‘ay Murod ijodida saj’ tabiiy ravishda qo‘llaniladi. Saj orqali matn yaratish o‘quvchida emotsional ta’sir uyg‘otadi va uning diqqatini jalb qiladi. Roman matnida saj orqali berilgan iboralar ko‘pincha qahramon nutqida yoki muallif bayonida uchraydi. Bu esa rivoyaning jonli va tabiiy chiqishini taminlaydi.

Shuningdek saj’ orqali matnda xalq og‘zaki ijodiga xos ohang saqlanadi. Saj’ san’ati epik tasvirdagi detal yoki hodisani o‘quvchi xotirasiga saqlashga xizmat qiladi. Qofiyadosh so‘zlar zanjiri voqelikni yorqinroq ko‘rsatadi.

Tog‘ay Murod xalq boshiga tushgan og‘ir sinovlar – XX asrning 30yillaridagi ocharchilik mudhish manzaralarini tasvirlashda o‘ta keskin, ritmik va vahimali monoton ohang yaratadi. Bunga erishish uchun adib sintaktik parallelizm va radifli saj’ imkoniyatlaridan foydalanadi:

” Kulbalarda bekasi bilan xo‘jasi uzala tushib o‘lib yotdi. Odamzod yo‘llarda o‘lib yotdi. Ariq bo‘ylarida o‘lib yotdi. Daraxt taglarida o‘lib yotdi.”

Ushbu parchada yozuvchi saj’ning radifi muvozan(vazndosh) turini qo‘llagan. ”O‘lib yotdi birikmasi” har bir gap oxirida o‘zgarishsiz kelib, kitobxon qalbida o‘sha davr dahshatini vizual jonlantiradi. Adib huddi shu bobda insonlarning fojeaviy qismatini davom ettirib yozadi: ”Birov zog‘ora nondan shishib o‘ldi. Birov kunjaradan shishib o‘ldi. Birov shuni-da topolmay – ochidan o‘ldi.” Bu yerda esa saj’i mutarraf(tarafli saj’) hodisasi kuzatiladi, ya’ni vazn biroz o‘zgarsada, ohangdoshlik saqlanib qoladi.

Romanning bosh qahramoni Botir Firqaning yoshi qaytib, mansab va shonshuhratdan uzoqlashgan davrdagi ruhiy tushkunligi, hayotidagi g‘ariblik va sukunat manzaralari nasriy marsiyaga o‘xshash ohang bilan beriladi. Professor qazo qilgan xonadondagi motam holati quyidagicha tasvirlangan:

” Ushbu sokinlik oti... motam... motam bo‘ldi! Motamda... ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmas bir tovush kezib yurdi. Quloq bilan eshitib bo‘lmas bir tovush uchib yurdi. Ushbu tovush... hovli uzra uchdi. Daraxt yaproqlari bo‘ylab uchdi. To‘n-do‘ppilar uzra uchdi. Mayus yuzlar aro uchdi. Mungli ko‘zlar aro uchdi. Ushbu tovush oti...
unsiz yig‘i... unsiz yig‘i bo‘ldi!”

Mazkur parcha Tog‘ay Murod badiiy mahoratining yuksak cho‘qqisidir. Gap oxirida ”kezib yurdi – uchib yurdi” hamda ” ketma-ket kelgan ” hovli uzra uchdi - bo‘ylab uchdi – uzra uchdi – aro uchdi” tuzilmalari o‘zbek tiliga xos fe’liy saj’ zanjirini yaratmoqda. ”Motam bo‘ldi - yig‘i bo‘ldi” jumlalari esa butun bir abzasni bosh va oxiridan halqa kabi qofiyalab, matnga alohida kompozitsion mukammmallik bag‘ishlagan. Bu ritmik qurilma qahramon va atrof-muhit o‘rtasidagi g‘amginlik sadosini kitobxonga liyrik pafos orqali yetkazadi. Yozuvchi Sharof Rashidovning cho‘l bag‘riga kelishi va u yerda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlarinini tasvirlashda xalqona dostonchilik, baxshiyona ohang va klassik saj’ an’analarini uyg‘unlashtiradi:

” Quyosh sharq burjidan... falak gilamiga qadam qo‘yar bo‘ldi. Olamni sodiq zotlar qalbiday ravshan ham musaffo etar bo‘ldi... Sharof Rashidov tumanma-tuman aylandi. Kolxozma-kolxoz aylandi. Dalama-dala aylandi.”

Bu o‘rindagi ”qo‘yar bo‘ldi – etar bo‘ldi” jumlalarida o‘zbekcha fe’llar asosida yuzaga kelgan tugallangan saj’i mutavozii(muvozanatli saj’) mavjuddir. ”Tumanma-tuman aylandi – kolxozma-kolxoz aylandi” qismlarida esa sintaktik parallelizmga asoslangan saj’ matnga ulug‘vorlik va bayramonalik kayfiyatini beradi. Shuningdek, asardagi ”Saraton... oshiq yuragiday yondi! Mashuq yuragiday yondi!” kabi jumlalar mumtoz adabiyotdagi tashbex hamda saj’ning go‘zal sintezidir. Botir Firqaning umr bo‘yi ishongan g‘oyalari inqirozga uchragan paytdagi ichki baqrig‘i, uning ruhiy iztiroblari ham qatiy qofiyalangan jumlalarda aks etadi:

”Mehr-oqibat, hurmat-izzatdan charchadim. Mansab-amal, shon-shuhratdan charchadim. Qahr-g‘azab, nafrat-alamlardan charchadim”. Bunday izchil takrorlar personajning ichki inqirozi va hayotdan charchaganini maksimal darajada bo‘rttirib berishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Tog‘ay Murod ”Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida o‘zbek badiiy nasrini yangi uslubiy bosqichga ko‘tardi. Adibning saj’ san’atidan fidalanish mahorati quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi:

Yozuvchi mumtoz sharq saj’chilikdagi sun’iylik va qatiy qoliplardan qochib, uni o‘zbek tilining jonli xalqona ohangi va dostonchilik an’analari bilan sintez qiladi.

Romanda ko‘proq o‘zbek tilining grammatik imkoniyatlariga tayanib, fe’l radiflari va o‘xshash kelishik-nisbat qo‘shimchalari yordamida tabiiy fe’liy saj’lar zanjirini yaratadi.

Asarda saj’ shunchaki tashqi bezak yoki liyrik chekinish emas, balki asar syujetidagi eng dramatik nuqtalarda emotsional ta’sir kuchini oshiruvchi asosiy uslubiy dominantadir.

Foidalanilgan adabiyotlar

1. Tog‘ay Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. Roman. – Toshkent: Sharq, 2018.
2. HojiahmedovA. Mumtoz adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Karimov B. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Muharir, 2011.